



**XVIII-XIX ASRLARDAGI QORAQALPOQLAR VA ROSSIYA
MUNOSABATLARINING TARIXIY AHAMIYATI**

Yarashova Iroda Jamilovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada XVIII–XIX asrlarda qoraqalpoqlar va Rossiya oʻrtasida shakllangan siyosiy, diplomatik hamda iqtisodiy munosabatlarning tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ikki tomon oʻrtasidagi elchilik aloqalarining yoʻlga qoʻyilishi, savdo munosabatlarining rivojlanishi, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoda olib borgan siyosati hamda bu jarayonlarning qoraqalpoq xalqi hayotiga koʻrsatgan taʼsiri tarixiy manbalar va arxiv hujjatlari asosida yoritilgan. Shuningdek, baʼzi tarixchi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilinib, qoraqalpoqlar va Rossiya oʻrtasidagi munosabatlarning tarixiy ahamiyati xolis ilmiy yondashuv asosida baholangan. Tadqiqot natijalari mazkur davr tarixini chuqurroq oʻrganish hamda qoraqalpoq tarixshunosligini yangi ilmiy maʼlumotlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Kalit soʻzlar: Qoraqalpoqlar, Rossiya imperiyasi, Markaziy Osiyo, Amudaryo, Xiva xonligi, jungʻorlar, Eshmuhammadxon, M. Tevkelev, P.P. Ivanov, Qozoq juzlari, siyosiy munosabatlar, mustamlakachilik.

XVIII–XIX asrlar Markaziy Osiyo tarixida muhim siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy oʻzgarishlar yuz bergan davr hisoblanadi. Aynan shu davrda Rossiya imperiyasining mintaqaga nisbatan geosiyosiy manfaatlari kuchayib, Oʻrta Osiyo xonliklari hamda mintaqada yashovchi xalqlar bilan diplomatik va savdo aloqalari yangi bosqichga koʻtarildi. Bu jarayonlardan qoraqalpoq xalqi ham chetda qolmadi. Rossiya bilan oʻrnatilgan munosabatlar qoraqalpoqlarning



siyosiy hayoti, iqtisodiy rivojlanishi va tashqi aloqalariga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Qoraqalpoqlar va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarning shakllanishida mintaqadagi murakkab siyosiy vaziyat, Jung'or bosqinlari xavfi, Xiva xonligi bilan o'zaro aloqalar hamda savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlash zarurati muhim omillardan biri bo'ldi. Rossiya esa Markaziy Osiyoda o'z ta'sir doirasini kengaytirish, yangi savdo yo'llarini nazorat qilish va mintaqaning tabiiy boyliklarini o'rganish maqsadida qoraqalpoqlar bilan diplomatik aloqalarni rivojlantirishga intildi. Natijada ikki tomon o'rtasida elchilik munosabatlari yo'lga qo'yilib, siyosiy va iqtisodiy hamkorlik asta-sekin rivojlandi¹.

XVIII asr boshlarida qoraqalpoqlar Sirdaryo va Amudaryo havzalarida yashab, ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi turmush tarzini olib borar edi. Ular qozoq juzlari, Xiva xonligi hamda Buxoro amirligi bilan siyosiy va iqtisodiy munosabatlarda bo'lgan.

XVIII asrning 20-yillaridan boshlab qoraqalpoq hukmdorlari Rossiya davlati bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashga intila boshladilar. Bunga bir necha muhim omillar sabab bo'lgan. Avvalo, qoraqalpoqlar Rossiya hududlari, xususan Tatariston va Boshqirdiston bilan olib boriladigan savdo aloqalarini rivojlantirishdan manfaatdor edilar. Savdo-sotiqning kengayishi mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlash va aholi farovonligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Bundan tashqari, Rossiyadan O'rta Osiyo xonliklariga yo'nalgan savdo karvonlarining asosiy yo'li qoraqalpoqlar yashaydigan hududlardan o'tgan. Ushbu yo'llarning xavfsizligini ta'minlashda qoraqalpoq aholisi muhim o'rin tutgan va savdo karvonlarini himoya qilish orqali mintaqaviy iqtisodiy aloqalarning uzluksiz davom etishiga hissa qo'shgan.

¹ Sadikov, Abdumumin Isaxovich. XVIII–XIX asrlardagi qoraqalpoqlar tarixiga oid manbalar va ularning tahlil. Maqola. 2025. 215-216-b.

Ikkinchi muhim omil XVIII asrning 20-yillari boshlarida Jung'or xonligi tomonidan yuzaga kelgan harbiy tahdidning kuchayishi bilan bog'liq edi. Murakkab siyosiy vaziyatda qoraqalpoq hukmdorlari Rossiya bilan yaqin diplomatik munosabatlar o'rnatish orqali tashqi xavfsizlikni ta'minlashga harakat qildilar. Bu hamkorlik Rossiya uchun ham manfaatli bo'lib, Shimoliy urush oqibatida davlat xazinasini sezilarli darajada zaiflashgan bir paytda yangi savdo yo'nalishlari va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish zarurati tug'ilgan edi.

Jung'or bosqinlari va ichki nizolar kuchaygan davrda qoraqalpoq oqsoqollari Rossiya bilan yaqinlashishga intildilar. Ularning asosiy maqsadi tashqi dushmanlardan himoya topish, savdo yo'llarini rivojlantirish hamda siyosiy barqarorlikni ta'minlash edi. Ayrim qoraqalpoq elchilari Rossiya hukmdorlari huzuriga borib, diplomatik aloqalarni mustahkamlashga harakat qilganlari tarixiy manbalarda qayd etilgan.

Qoraqalpoqlar va Rossiya o'rtasidagi diplomatik munosabatlar ayniqsa qoraqalpoq hukmdori Eshmuhammadxon davrida yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu davrda tomonlar o'rtasida elchilik aloqalari yo'lga qo'yilib, siyosiy va savdo hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan muzokaralar olib borildi.

1721-yilda qoraqalpoq hukmdori Eshmuhammadxon Rossiya podshosiga elchilar yuborib, ikki davlat o'rtasidagi siyosiy va savdo munosabatlarini rivojlantirish istagini bildirgan. Mazkur elchilik missiyasiga javoban Rossiya hukumati ham o'z vakillarini qoraqalpoqlar yurtiga yuborib, o'zaro diplomatik aloqalarni yo'lga qo'yishga kirishgan.

Rossiya imperatori Pyotr I hamda Eshmuhammadxon o'rtasidagi diplomatik munosabatlarga oid muhim hujjatlar bugungi kunda Rossiya arxivlarida saqlanmoqda. Mazkur tarixiy manbalar arxivshunos A. M. Birze tomonidan o'rganilib, qoraqalpoqlarga oid arxiv materiallari alohida to'plam holida nashr etilgan. Ushbu hujjatlar XVIII asrda qoraqalpoqlar va Rossiya



o'rtasidagi siyosiy-diplomatik aloqalarni tadqiq etishda muhim manba sifatida e'tirof etiladi.²

Biroq bu elchi almashinuvlar o'z samarasini bermasdanoq, 1723-yilda jung'orlarning (qalmiqlar-g'arbiy mo'g'ullar) hujumi boshlanadi (1635-yilda tashkil topgan bu davlat 1758-yilda Chin imperyasi tomonidan tugatilgan).³

Bu hujum natijasida qoraqalpoq xalqi uch guruhga bo'linib ketadi. Ularning bir guruhi Xitoy va afg'onlar yurtiga ko'chadi. Ikkinchi guruhi O'rta Osiyoning keng dalalaridan boshpana topadi.

Uchinchi guruhi hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida yashab qoladi va ular hozirgi qoraqalpoq xalqining bobokalonlari hisoblanadilar.

Qoraqalpog'iston hududida qolganlarning bir qismi Sirdaryoning yuqori oqimidan Toshkentga, qolganlari esa daryoning quyi oqimi bo'ylab Orol dengiziga qarab siljiydilar. Shu tariqa qoraqalpoqlar shartli ravishda "quyi" va "yuqori" qoraqalpoqlarga bo'linib qoladi.

Quyi qoraqalpoqlarning asosiy qismi Quvondaryo atrofida (Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida o'zlashtirilmagan yer) joylashadilar.

Ular qozoqlarning Kichik juz xonligiga o'lpon to'lab turadilar. 1724-yildan boshlab qoraqalpoqlar yana Rossiya bilan munosabatlarini qayta tiklashga harakat qiladi.

1726-yilda qozoq xoni Abulxayrxon Peterburgga o'z elchilarini jo'natadi. Uning tarkibida qoraqalpoqlar vakili ham bor edi. Bunga javoban 1731-yilda Rossiya M. Tevkelevni Abulxayrxon huzuriga yo'llaydi. Muzokaralar natijasida Kichik juz qozoqlari va quyi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilinadi. Ayni paytda, qoraqalpoqlarning Rossiyaga emas, Kichik juz xonligiga o'lpon to'lashi tan olinadi.⁴

² Turganov R. Q. Qoraqalpaqstan tariyxinan derekler (XVII–XIX ásirlerdegi Rossiyalı elshiler hám sayaxatshılardıń maǵlıwmatları tiykarında). – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2019. – B. 35.

³ <https://darsli.uz/preview/library> internet manzili

⁴ N. Ismatova, U. Jo'rayev. 9-sinf O'zbekiston tarixi. Darslik.T:2024. 123-124-b.

Biroq keyinchalik qoraqalpoqlar Kichik juzga qaramlikdan chiqishlarini ma'lum qilib, Peterburgga elchi yuboradilar.

Rus imperatorining bu taklifga roziligini olish uchun 1743-yilda atoqli botir Mamanbiy boshchiligida Peterburgga elchi yuboriladi. Mamanbiy rus hukumatidan Rossiyaga qo'shilganliklari haqidagi yorliqnomani oladi va qoraqalpoqlar o'lponni to'g'ridan to'g'ri Rossiyaga to'laydigan bo'ladilar. Ammo Rossiya imperiyasi saroyidagi ichki nizo-janjallar tufayli qoraqalpoqlarga berilgan yorliq unutiladi. Bundan foydalangan Abdulxayrxon qoraqalpoqlar yurtiga hujum qiladi va ularni o'ziga qayta bo'ysundiradi.⁵

P. P. Ivanov “XIX asr Xiva xonlari arxivi” asari orqali qoraqalpoqlarga oid arxiv hujjatlarini birinchi bo‘lib ilmiy tavsiflab, qoraqalpoq tarixini arxiv hujjatlari asosida o‘rganishni boshlab berdi.⁶

P. P. Ivanov o‘z asarida qoraqalpoqlarning XVIII–XIX asrlardagi tarixini ochib berishga harakat qilgan. Muallif o‘z so‘zida shunday deydi: «Hozirgi vaqtda qo‘limizda mavjud manbalar orqali faqat XVIII–XIX asrlardagi qoraqalpoqlarning tarixini ochib berish uchun ozmi-ko‘pmi darajada yetarli, deb hisoblash mumkin. Biroq bu materiallarda ham, asosan, xalqning tashqi siyosiy hayoti yoritilgan, ammo uning o‘tmishdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari hali yetarli darajada yoritilmagan».⁷

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Turkiston hududlarini bosib olish siyosatini jadallashtirdi. 1860–1870-yillarda Toshkent, Samarqand, Qo‘qon va boshqa hududlar Rossiya tasarrufiga o‘tdi. Bu jarayon qoraqalpoqlar yashaydigan hududlarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi.

1873-yilda Xiva xonligining Rossiyaga qaram bo'lib qolishi natijasida Amudaryo bo'yidagi qoraqalpoq hududlari ham Rossiya siyosiy ta'sir doirasiga

⁵ <https://www.scribd.com> internet manzili

⁶ <https://lingvospekr.uz> internet manzili

⁷ Sadikov, Abdumumin Isaxovich. XVIII–XIX asrlardagi qoraqalpoqlar tarixiga oid manbalar va ularning tahlil. Maqola. 2025. 217-b.

kirdi. Natijada mintaqada yangi boshqaruv tizimi joriy etildi, soliqlar tartibga solindi va harbiy nazorat kuchaytirildi.⁸

Rossiya hukmronligi davrida qoraqalpoq hududlarida iqtisodiy hayotda muayyan o'zgarishlar kuzatildi. Amudaryo orqali savdo aloqalari kengaydi, yangi bozorlar paydo bo'ldi, qishloq xo'jaligida ayrim yangiliklar joriy qilindi. Baliqchilik, chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini Rossiya bozorlariga chiqarish imkoniyati vujudga keldi.

Biroq bu jarayonlar bilan bir qatorda mustamlakachilik siyosati ham kuchaydi. Mahalliy aholining yer-mulklariga davlat nazorati o'rnatildi, soliq yukining ortishi va mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlari cheklanishi qoraqalpoq aholisi manfaatlariga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Rossiya davrida mintaqada yangi usuldagi maktablar ochildi, rus tili o'rganila boshlandi. Ayrim qoraqalpoq ziyolilari Rossiya ta'lim muassasalarida tahsil oldilar. Ilmiy ekspeditsiyalar natijasida qoraqalpoq xalqining etnografiyasi, tili, urf-odatlar va folklori o'rganildi.

Shu bilan birga, rus olimlari tomonidan qoraqalpoq xalqining tarixi va madaniyati bo'yicha qimmatli ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi. Bu tadqiqotlar bugungi kunda ham muhim tarixiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

Xulosa qiladigan bo'lsak, XVIII–XIX asrlarda qoraqalpoqlar va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar siyosiy, iqtisodiy va diplomatik omillar ta'sirida bosqichma-bosqich rivojlandi. Dastlab savdo aloqalarini kengaytirish, tashqi xavfsizlikni ta'minlash hamda mintaqadagi murakkab siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida yo'lga qo'yilgan hamkorlik keyinchalik Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlar bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Elchilik aloqalarining yo'lga qo'yilishi va savdo yo'llarining rivojlanishi ikki tomon o'rtasidagi munosabatlarning mustahkamlanishiga xizmat qildi.

⁸ <https://uz.wikipedia.org> internet manzili

Mazkur davr voqealari shuni ko'rsatadiki, Rossiya bilan o'rnatilgan aloqalar qoraqalpoq jamiyatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bir tomondan, savdo aloqalari kengayib, diplomatik munosabatlar rivojlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Rossiya imperiyasining mintaqadagi siyosiy ta'siri kuchayishi qoraqalpoqlarning keyingi tarixiy taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shu bois mazkur munosabatlarni faqat bir tomonlama emas, balki davrning siyosiy sharoiti va tarixiy voqeliklari nuqtayi nazaridan xolis baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Qoraqalpoqlar va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish bugungi tarixshunoslik uchun ham dolzarb bo'lib, ushbu yo'nalishdagi ilmiy tadqiqotlarni yangi arxiv hujjatlari va tarixiy manbalar asosida davom ettirish muhim ilmiy natijalarni berishi mumkin. Mazkur mavzuning chuqur tadqiq etilishi XVIII–XIX asrlardagi Markaziy Osiyoning siyosiy jarayonlarini, shuningdek, qoraqalpoq xalqining tarixiy taraqqiyotidagi muhim bosqichlarni yanada to'liq va xolis yoritishga xizmat qiladi.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, qoraqalpoq xalqi murakkab siyosiy sharoitda o'z milliy qadriyatlari, madaniyati va tarixiy merosini saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Bugungi kunda ushbu tarixiy tajriba mintaqa xalqlari o'rtasidagi hamkorlik va o'zaro hurmat tamoyillarini chuqurroq anglashda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N. Ismatova, U. Jo'rayev. 9-sinf O'zbekiston tarixi. Darslik.T:2024. 123-124-b.
2. Turganov R. Q. Qaraqalpaqstan tariyxınan derekler (XVII–XIX ásirlerdegi Rossiyalı elshiler hám sayaxatshılardıń maǵlıwmatları tiykarında). – Toshkent: Tafakkur Bo'stoni, 2019. – B. 35.





3. Sadikov, Abdumumin Isaxovich. XVIII–XIX asrlardagi qoraqalpoqlar tarixiga oid manbalar va ularning tahlil. Maqola. 2025. 217-b.
4. <https://darsli.uz/preview/library> internet manzili
5. <https://www.scribd.com> internet manzili
6. <https://lingvospektr.uz> internet manzili
7. <https://uz.wikipedia.org> internet manzili

